

**O'QUVCHILARDA OILAVIY TADBIRKORLIKNI
SHAKLLANTIRISH ORQALI IQTISODIY TARBIYA
BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASH**

*Denav tadbirkorlik va pedagogika instituti, "Pedagogika va
psixologiya" kafedrası mudri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent. **Boboqulova Dilfuza Meliboevna.***

E-mail: boboqulova83@bk.ru

Telefon: 99-556-68-11.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'quvchilarni bo'lajak tadbirkorlikni shakllantirish orqali oilada iqtisodiy tarbiya barqarorligini mustahkamlash haqidagi ijtimoiy va pedagogik omillari berilgan. O'quvchilarni ijodiy fikrlaydigan, mustaqil faoliyat yuritadigan, ularning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlanish orqali va oilada iqtisodiy barqarorlikni o'rgatib borish, ularning o'z-o'zini ta'minlashning roli va o'rni yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *mustaqil ta'lim, kompetensiya, tadbirkorlik kompetensiyasi, milliy hunarmadchilik, professional ta'lim, oilada iqtisodiy barqarorlik, mustaqil tadbirkorlik, o'quvchini o'z-o'zini ta'minlashga tayyorlash.*

Bugun yurtimizda uchunchi renessans poydevorini yaratilayotgan bir paytda boshlang'ich sinf o'quvchilaridan boshlab oilada iqtisodiy barqarorlikni yo'lga qo'yishda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish kasbiy qadriyatlardan foydalanib tarbiya berishda maktab, oila va mahalla hamkorligi dolzarb masalalardan biridir. Bu davrida yoshlarimizni o'z taqdirining chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy qadriyatlarning sohibi sifatida, islom sivilizatsiyasiga bo'lgan hurmat yanada oshayotgan bir paytda, har bir

o'quvchilarni oiladan boshlab dastlabki milliy qadriyatlarga mos, ma'naviy odob-axloq va kasbiy qadriyatlardan foydalanib iqtisodiy tarbiya berish, barchamiz uchun zaruriy fazilatlardan biri bo'lib, har bir bola uchun bu sifatlarini shakllantirishimiz lozim.

Mazkur jarayonning muvaffaqiyati, ayniqsa, yosh avlodni tadbirkorlik ruhida tarbiyalash va ularni oilaviy tadbirkorlik mexanizmlarini chuqur o'zlashtirishga yo'naltirish bilan chambarchas bog'liq. Zero, zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – iqtisodiy tafakkurga ega, tashabbuskor va innovatsion fikrlaydigan yoshlarni voyaga yetkazishdan iborat. Bu maqsadga erishish esa, avvalo, ta'lim jarayonida oilaviy tadbirkorlik konsepsiyasini samarali joriy etishni, uning ilmiy-nazariy asoslarini puxta ishlab chiqishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda nafaqat iqtisodiy, balki psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillarni ham inobatga olish zarur. Zamonaviy ta'lim tizimi yoshlarni ushbu murakkab tizimga tayyorlashda kompleks yondashuvlarga tayanishi lozim. Innovatsion yondashuvlar, interaktiv o'quv metodlari va axborot texnologiyalariga asoslangan vositalar o'quvchilarning faolligini oshirib, ularni ijodiy fikrlashga, tashabbus ko'rsatishga va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatadi. Bu esa, o'z navbatida, ularning real hayotga moslashuvchanligini kuchaytiradi. O'quvchilarga oilaviy tadbirkorlik mexanizmlarini o'rgatish jarayonini tahlil qilish, mavjud pedagogik yondashuvlarni ilmiy-nazariy jihatdan baholash hamda samarali innovatsion usullarni taklif etish asosiy maqsadimizdan iboratdir. O'quvchilarda oilaviy tadbirkorlikka oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

– Maktab ta'limiga integratsiya qilish. Oilaviy tadbirkorlikni o'rgatishda amaldagi o'quv rejalariga tadbirkorlik asoslariga oid maxsus modullarni kiritish, bu orqali o'quvchilarni zamonaviy iqtisodiy muhitga tayyorlash;

– Loyihaviy faoliyat va tanlovlar. O'quvchilarga o'z oilaviy biznes g'oyalarini ishlab chiqish va taqdim etish imkoniyatini beruvchi tanlovlar, loyihalar hamda amaliy mashg'ulotlarni muntazam tashkil etish;

– Mentorlik tizimi. Muvaffaqiyatli tadbirkorlar va malakali pedagoglar ishtirokida mentorlik va murabbiylik tizimini rivojlantirish orqali yoshlarni rag'batlantirish, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish va amaliy maslahatlar berishni yo'lga qo'yish;

– Resurslar va axborot markazlari. O'quvchilar va ularning ota-onalari uchun oilaviy tadbirkorlik bo'yicha adabiyotlar, treninglar, maslahat xizmatlarini tashkil etish, shuningdek, tegishli ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan axborot-resurs markazlarini yaratish.

O'quvchilarida tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish orqali oilada iqtisodiy tarbiya barqarorlikni mustahkamlashda iqtisodiy tarbiya berish orqali milliy hunarmandchilik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda va gullab-yashnashida asosiy omil hisoblanadi.

Oilada kasbiy tarbiya berish yoki tadbirkorlikning ilk tushunchalarini shakllantirish bugun O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham yangi va muhim masaladir. Uning rivojlanishiga doir shart-sharoitlar va tajriba tarixda ham mavjud. Markaziy Osiyo hududida asrlar davomida hunarmandchilik keng tarqalgan faoliyat turi bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz ko'plab hunarlarni uy sharoitida, barcha oila a'zolari ishtirokida amalga oshirgan. Ko'p hollarda unikal bo'lgan hunarmandchilik an'analari, iqtisodiy zamin, kasbiy mahoratiga oid sirlar va tajriba asrlar davomida shakllangan va avloddan-avlodga o'tib kelgan. Shu nuqtai nazardan, G'arb amaliyotida keng qo'llaniladigan «oiladagi iqtisodiy-kasbiy tarbiya berish va tadbirkorlik» tushunchasi tarixiy jihatdan O'zbekistonda «unutilgan qadriyat» sifatida qayta tiklanish jarayoni namoyon bo'lmoqda.

Eng muhimi, oilada iqtisodiy tarbiya berish va biznes rivoji mehnatga jalb etilishi qiyin bo'lgan aholi qatlamlarini ham bandlik sohasiga jalb etadi.

Oilaviy korxonalarda ayollar, o'quvchi bolalar, o'smirlar va keksalar mehnatidan samarali foydalanish imkoni berildi. Ular uchun bu faoliyat turi mehnat bilan shug'ullanish va qo'shimcha daromad olish manbai sifatida xizmat qiladi. Oilada iqtisodiy tarbiya berish orqali milliy hunarmadchilikni va tadbirkorlikning ichki zahiralarini safarbar etish iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlikka erishish omillaridan biri hisoblanadi.

Oilaviy tadbirkorlik – nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki yosh avlodning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlashda muhim omildir. Maktab ta'limi jarayonida oilaviy tadbirkorlikka oid bilim va ko'nikmalarni kengaytirish, innovatsion yondashuvlar asosida o'quvchilarni ushbu sohada faol ishtirok etishga yo'naltirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan metodlar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, loyihaviy va interfaol o'quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ta'limning samaradorligini oshirish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.MIRZIYOEV SH.M. ERKIN VA FAROVON DEMOKRATIK O'ZBEKISTON DAVLATINI BIRGALIKDA BARPO ETAMIZ. -T.:, "O'ZBEKISTON", 2017Y .
- 2.Raxmatullaeva D.R. O'quvchilarning tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasini aniqlash metodikasini joriy etish va pedagogik samaradorligini baholash uslubiyati / Fan, ta'lim va innovatsiya jurnali. –T.:2020, -№2. –B. 17.
- 3.Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma'naviyat,2008 y.
- 4.Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: A.Qodiriy nomidagi nashriyoti. 1993 y.
5. Xudoyqulov X.J. Komillik fazilatlar. –T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021 y.